

“KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOT ISHLANMASI

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

Mavzu: “Vatanimning go‘zal joylari”

Mashg‘ulot maqsadi

TA’LIMIY	O‘quvchilarning O‘zbekistonning go‘zal joylari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o‘zlari bilgan yoki ko‘rgan go‘zal maskanlar haqida fikr yuritishga yo‘naltirish.
TARBIYAVIY	O‘quvchilarda Vatan tabiati va go‘zal maskanlariga mehr, ularni asrash va qadrlash tuyg‘ularini shakllantirish.
RIVOJLANTIRUVCHI	O‘quvchilarning kuzatish, tasavvur qilish, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va o‘z ishini og‘zaki taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar

- O‘zbekistonning o‘zi biladigan go‘zal joylarini ayta oladi.
- Vatan go‘zalligini rasm, plakat yoki kollaj orqali ifodalay oladi.
- Guruhda hamkorlikda kichik loyiha yarata oladi.
- O‘z loyihasi haqida 2–3 gap bilan fikrini ifodalay oladi.
- Vatan go‘zalligini asrash zarurligini tushuntira oladi.



KERAKLI JIHOZLAR

- O‘zbekistonning go‘zal joylari (tog‘, bog‘, tarixiy obida, shahar) tasvirlangan rasmlar
- Har bir guruh uchun A3 qog‘oz, rangli qalamlar, qaychi, klaster uchun jurnal, rasm bo‘laklari

 3 daqiqa | TASHKILIY QISM (“Sayohat kayfiyati”)

O'QITUVCHI: O'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi.

O'QITUVCHI: Assalomu alaykum, bolajonlar! Bugun Vatanimizning go'zal joylari bo'ylab kichik sayohat qilamiz. Tayyor bo'ling - biz bugun sayohatchi bo'lamiz! Keling, samolyotimizga chiqamiz. Qo'llaringizni qanotdek yozing! Men joy nomini aytaman, sizlar esa mos harakatni bajarasiz.

“TOG'!” desam - qo'llaringizni baland ko'tarib cho'zilasiz;

“O'RMON!” desam - daraxtlarni tasvirlaysiz;

“BOG'!” desam - gulni hidlayotgandek egilasiz;

“SAHRO!” desam - issiqdan yelpinasiz.”

O'QITUVCHI: 4–5 marta tasodifiy tartibda so'zlarni aytadi, tezlikni oshirib boradi.

O'QUVCHILAR: Qo'llarini yozib “samolyot” bo'lib turishadi, har bir so'zga mos harakatni tez bajaradilar.

O'QITUVCHI: Ana, endi biz haqiqiy sayohatchilarmiz! Qani, Vatanimizning go'zal joylari haqida gaplashishga tayyormisiz?

Eslatma: Agar sinfda joy tor bo'lsa, o'quvchilar o'z partasi yonida turib bajarishlari mumkin. Xohlasangiz “TOG'”, “O'RMON” so'zlari o'rniga “Chimyon”, “Orol”, “Registon” kabi aniq joy nomlaridan foydalanib, mavzuga yanada yaqinlashtirsa ham bo'ladi.

 5 daqiqa | O'TGAN MAVZUNI ESLASH (Savol-javob)

O'QITUVCHI: O'tgan mashg'ulotda Vatan qayerdan boshlanishi haqida gaplashdik. Oila a'zolaringiz shu haqda qanday fikr bildirdilar?

O'QUVCHILAR: 2–3 ta fikr bilan o'rtoqlashadilar.

 5 daqiqa | MAVZUGA KIRISH (Aqliy hujum)

O'QITUVCHI: Oilamiz, uyimiz, mahallamiz biz uchun juda qadrli. Ammo Vatanimizda yana qanday go'zal joylar bor? Bilgan joylaringizni ayting-chi!

O'QUVCHILAR: Bilgan go'zal joylarini aytishadi (masalan: Registon, Chorvoq, Chimyon, Amir Temur xiyoboni va h.k.).

5 daqiqa | KUZATISH VA MUHOKAMA (Rasmlarni kuzatish)

O'QITUVCHI: O'zbekistonning turli go'zal maskanlari aks etgan rasmlarni ko'rsatadi.

O'QITUVCHI: Diqqat bilan qarang - bu rasmlarda qaysi joylarni taniyapsiz? Qaysi maskan haqida ko'proq bilishni xohlardingiz?

O'QUVCHILAR: Rasmlarni kuzatib, o'z fikrlarini bildiradilar.

15 daqiqa | KICHIK LOYIHA (Jamoalar bilan ijodiy loyiha - sinfga mos rollar)

3-bosqich - ijodiy tanlov

O'QITUVCHI: Sinfni 4 ta guruhga bo'ladi va har bir guruhga rasm chizish uchun quyidagi mavzulardan birini tanlashni taklif qiladi: "Tabiat maskanlari", "Shaharlar va tarixiy maskanlar", "Tog'lar, bog'lar va dam olish maskanlari", "Men orzu qilgan go'zal O'zbekiston".

O'quvchilar rasmni yakka tartibda yoki juftlikda, plakat va kollajni esa guruhda tayyorlashlari mumkin. Imkoniyatga qarab rasm maktab hovlisining xavfsiz va ruxsat etilgan joyida asfaltga chiziladi yoki ajratilgan maxsus joyda devorga chiziladi.

O'QITUVCHI: Endi guruhlarga bo'linamiz. Har bir guruh o'z mavzusida rasm, plakat chizadi yoki kollaj tayyorlaydi.

Eslatma: 1-2-sinflar uchun - rasm chizish, bo'yash va joy nomini yozish topshirig'i beriladi. 3-4-sinf uchun rasm chizish va 1-2 ta qisqa jumla bilan "Uni qanday asraymiz?" degan savolga javob berish topshirig'i beriladi. Masalan: "Biz tabiatni asraymiz. Chiqindi tashlamaymiz, daraxtlarni sindirmaymiz."

O'QUVCHILAR: Guruhlarga bo'linib, tanlangan mavzuda rasm, plakat yoki kollaj tayyorlaydilar.

7 daqiqa | OG'ZAKI TAQDIMOT (Kichik taqdimot)

O'QITUVCHI: Har bir guruh 1-2 daqiqada o'z ishini taqdim etadi. Gap qolipidan foydalanishingiz mumkin: Biz ... joyini tanladik, chunki Uni asrash uchun ... qilish kerak.

O'QUVCHILAR: Har bir guruh navbati bilan chiqib, ishini taqdim etadi.

3 daqiqa | REFLEKSIYA ("Jumlani davom ettir")

O'QITUVCHI: Keling, shu jumlani davom ettiring: Men Vatanimning go'zalligini ... ishlar bilan asrayman.

O'QUVCHILAR: Navbat bilan jumlani o'z fikri bilan yakunlaydi.

Muhokama uchun qo'shimcha savollar

O'QITUVCHI: O'zbekistonning qaysi go'zal maskanlarini bilasiz? Bu maskanning go'zalligi nimada deb o'ylaysiz? Agar tabiat va go'zal maskanlarni asramasak, qanday oqibatlar yuz berishi mumkin? Ularni asrash uchun siz bugun qanday yaxshi ish qila olasiz?

Refleksiya jumalari (2 daqiqa)

“Menga Vatanimning _____ joyi yoqadi.”

“Men Vatanimning go'zalligini _____ orqali asrayman.”

“Bugun men _____ ni bildim.”

Vatan bizning oilamiz va mahallamizdan boshlanadi. Uning go'zal tabiati, shaharlari, tarixiy va madaniy maskanlari esa bizning umumiy boyligimizdir. Uni sevishtirish, qadrlash va asrash - har birimizning vazifamiz.

Uyga vazifa

O'QITUVCHI: 1–2-sinf o'quvchilari: “Oilam bilan borgan eng go'zal maskan” mavzusida rasm chizadi va oila a'zolaridan shu joy haqida bitta qiziqarli ma'lumot og'zaki so'rab, yodda saqlab keladi.

O'QITUVCHI: 3–4-sinf o'quvchilari: xuddi shunday rasm chizadi, biroq oila a'zolaridan 2–3 ta qiziqarli ma'lumot so'rab, ularni yozib keladi - keyingi mashg'ulotda sinfdoshlari bilan o'rtoqlashadi.